

“BEMOR” HIKOYASIDAGI HAYOTIY MUAMMOLAR TALQINI

Muzaffarova Marjona

Osiyo Xalqaro Unversiteti

1-FT(o’)-24 guruh talabasi,

Ilmiy maslahatchi : Sh.N.Axmedova

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk qalam sohibi hisoblanadigan Abdulla Qahhorning hikoyalari tahlilida ijtimoiy davr muammolari yoritilgan bo`lib, oddiygina qora xalqning fojialarini ochiqdan ochiq ayta olmay satirik, yumoristik yo`llar bilan tilga olinishi, o`ta achinarli hikoya sanaladigan “Bemor” hikoyasida ilojsiz kambag`al xalqdan osongina foydalangan mansabdorlarning qilgan ishlari qoralanibgina qolmasdan shu bilan birgalikda, hikoyadagi bosh mavzu va qahramonlar ruhiyati ham badiiy tahlilga tortadi.

Kalit so`zlar: Adib, ijod, qiziqish, obraz, hayot, tahlil, e`tiborsizlik oqibati.

Abstract: In this article, the analysis of the stories of the great writer Abdullah Qahhor highlights the problems of the social era, and the tragedies of the black people are mentioned in satirical and humorous ways, and in the story "The Patient", which is considered a very sad story, not only the actions of officials who easily took advantage of the helpless poor people are condemned, but also the main theme and the psyche of the characters in the story are subjected to artistic analysis.

Keywords: Writer, creativity, interest, image, life, analysis, consequences of neglect.

KIRISH. Abdulla Qahhor hozirgi Leninobod oblastining Ashtda dunyoga kelgan.Uning otasi Abduqahhor temirchilik kasbi bilan shug`ullangan, ammo kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmaganligi sababli u doim ish izlab qishloqma-qishloq ko`chib yurardi. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursux, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg`unzor kabi Qo`qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. Bog`parvarish qilib umr o`tkazar, lekin topgani o`ziga yuq bo`lmay nochorlik, qashshoqlik iskanjasida dars kechardi. Zulmatli hayotning behisob xotiralari keyinchalik jonli

lavhalarga yorqin obrazlarda qaytadan gavgdalanish uchun Abdulla Qahhorning zehniga o`rnashib qolgan edi. Bolalik yillaridayoq qiyinlilik, ocharchilik kunlarni o`tgazar, har bir o`tgan kuniga o`zgacha kitoblar o`qib mutafakkirlikka intilardi. Ulg`aygach, A.Qahhor Qo`qon pedtexnikumida o`qiydi. Talabalik yillarida uning sherlari va maqollari tez –tez chop etilib turar edi . U shu tariqa adabiyot olamiga kelib kira boshladi .Nazmdan tortib nasirgacha bo`lgan keng qamrovli ijodida hikoya janri yaqqol ajralib turadi.Uning hikoyalarida o`zgacha ruh, pafos ufurib turardi, hikoyalari ichida kam so`z qo`llab, butun boshli hikoyaning mazmunini sodda, ravon tilda yoritib bera oladigan mohir hikoyanavis bo`ldi.

Dastlab, hikoya yozgan yillariga e`tibor qaratadigan bo`lsak, o`z hikoyalarida bolalik yillaridagi mashaqqatli kunlarini yoritadi. Albatta, mana shunday achinarli va og`ir kunlarda kechgan bolalikning achchiq xotiralari yosh ijodkorga ta`sir o`tkazmasdan qolmaydi. Hikoyanavisning o`zi yashab o`tgan davr bilan bog`liq turli mazvulardagi ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etuvchi hikoyalardan biri bu “Bemor” hikoyasi.

Hikoya kichik hajmli va ixchamgina bo`libgina qolmasdan unda butun bir davrning og`ir va zalvorli muhiti tasvirlangan. Hikoya xalqning mustamlakachilik botqog`iga botib bo`lgan yillarga to`g`ri keladi. Yurtimiz har sohada izdan chiqqan edi, nafaqat tibbiyot, ta`lim, balki iqtisodiy tomondan o`sis ham to`xtab qolgan edi.

“Sotiboldining xotini og`rib qoldi. Sotiboldi xotinini o`qitdi bo`lmadi, tabibga ko`rsatdi. Tabib qon oldi. Bemorning ko`zi tinib, boshi aylanadigan bo`lib qoldi. Baxshi o`qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi.Tovuq so`yib qonladi¹.”Ushbu parchada bir amallab “tabib” nomini olgan kimsa, yuqorida aytilgandek ayolning qanday dardda ekanligini bilmay turib , undan qon oladi, buning oqibatida o`zi harakatsiz bo`lgan ayol butunlay holdan toyadi .Hatto o`zi ham kim ekanini bilmaydigan allaqanday bir xotin rangi o`chgan darddan tamom bo`lgan ayolni savaladi . Bemorni kasalxonaga olib

¹“Anor” qissa va hikoyalar to`plami A.Qahhor. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matboat uyi Toshkent .2012.82-b.

borish kerak, shundagina ayol tirik qolardi, ammo bunga Sotiboldining qurbi yetmaydi. Kasalxonani uylaganda ko`z oldiga 25 so`mlik izvosh va oq podsho surati tushirilgan pul ko`z o`ngida gavdalanardi. Ushbu hikoyada bemorning istiroblari, unung jismoniy og`rig`i bilan birga, ruhiy ezilishlari ham ta`sirli tasvirlangan. Bu o`sha yillardagi odamga emas, holatiga va ijtimoiy tabaqasiga qarab chora ko`rish odatining oqibati edi.

Shuningdek, muallif o`sha paytdagi sog`liqni saqlash tizimidagi kamchiliklarni ham nozik badiiy til orqali fosh qiladi: tibbiy anjomlar yetarli emas, shifokorlar oddiy qora xalqni chekayotgan zahmatiyu dardini umuman uylashmaydi. “Bemor” hikoyasi – nafaqat bir kishining kasalligi, balki butun jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy kasalliklar haqida ham tanqid qilingan teran ma`noli hikoyadir A. Qahhor bu hikoya orqali o`quvchini o`z zamonasidagi dolzarb muammolar ustida chuqur o`ylashga majbur qiladi. Amaldorlarning oddiy xalqqa nisbatan sovuqqonligi – bu shunchaki individual befarqlik emas, balki jamiyatda ildiz otayotgan mas`uliyatsizlik va rahmsizlik aksidir. Ular holdan to`ygan bemorni inson emas, navbatdagi o`lja sifatida ko`rar edilar. Bu – o`sha yillarda keng tarqalgan muamolardan biri insonning ichki dunyosi, ular uchun xalqning hissiyoti, umidlari ahamiyatsiz bo`lib qolgani manzarasidir.

Ushbu hikoyadan xulosa chiqarar ekanmiz, Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi- bu oddiy bemorning holati emas, balki butun jamiyatning ruhiy axloqiy salomatligini o`lchaydigan oyna hisoblanadi. Hikoyadagi ayanchli muhit- beparvolik, sovuqonlik insoniylikka bo`lgan bepisand munosabat o`sha davrdagi, tizim muammolarining jamiyatda keng tarqalgan loqaydlikning badiiy ifodasi edi. A.Qahhor bu hikoyada o`sha davr muhitini o`rganib emas, balki qalban his etib yozgan. Bemor o`g`riqdan, shu bilan birga atrofdagilarning loqaydligidan aziyat chekadi. Asardagi eng o`g`riqli jihat shundaki, kasallikdan ko`ra beparvolik sovuqonlik ko`proq qiynaydi. Bu esa jamiyatda inson qadri, ruhiy holati, mehr oqibatini qanday ahvolda ekani haqida jiddiy o`ylantiradi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. “Anor” qissa va hikoyalar to`plami A.Qahhor. G`afur G`ulom nomidagi nashriyot matboat uyi Toshkent .2012.



2. 6-sinf Adabiyot darsligi. 1-qism. Toshkent, 2017, “Ma`naviyat”, 108-118-betlar
3. www.cyberlaninka.ru.com
4. www.ziyouz.com